

**YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA
INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TAMINLASHNING MA’NAVIY
ASOSLARI**

Xodjimurotova Guljaxon Saloxiddinovna

Samarqand Davlat Pedagogika Instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni

o‘qitish metodikasi yo‘nalishi magistranti, O‘zbekiston

Telefon; +998(94)703-97-37

E-mail: xodjimurotovaguljahon@gmail.com

Ergasheva Nodira Toxir qizi

Samarqand Davlat Pedagogika Instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni

o‘qitish metodikasi yo‘nalishi magistranti, O‘zbekiston

Telefon; +998(88)977-83-33

Sevarova Maftuna Tuymurod qizi

Samarqand davlat pedagogika Instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni

o‘qitish metodikasi yo‘nalishi magistranti, O'zbekiston.

Telefon: +998(91)588-29-77

E-mail: maftunasevarova26@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda inson huquq va erkinliklarini taminlash masalasining ma’naviy-falsafiy, ijtimoiy va huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e’tirof etish, adolat, erkinlik, qonun ustivorligi, ijtimoiy birdamlik va ma’naviy mas’uliyat kabi tushunchalarning konstitutsiyaviy normalarda mustahkamlanishi ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Huquq va ma’naviyatning uzviy bo‘liqligi, davlat va jamiyat taraqqiyotida ma’naviy omillarning konstitutsiyaviy mustahkamlanishi asoslab berilgan.

Kalit soʻzlar: Konstitutsiya, inson huquqlari, erkinliklar, maʼnaviy asoslar, huquqiy davlat, qadr-qimmat, fuqarolik jamiyati.

Аннотация: В данной статье анализируются духовно-философские, социальные и правовые основы обеспечения прав и свобод человека в новой редакции Конституции Республики Узбекистан. С научно-теоретической точки зрения освещается закрепление в конституционных нормах таких понятий, как признание человеческого достоинства высшей ценностью, справедливость, свобода, верховенство закона, социальная солидарность и духовная ответственность. Обосновывается органическая взаимосвязь права и духовности, а также конституционное закрепление духовных факторов в развитии государства и общества.

Ключевые слова: Конституция, права человека, свободы, духовные основы, правовое государство, человеческое достоинство, гражданское общество.

Abstract: This article analyzes the spiritual-philosophical, social, and legal foundations for ensuring human rights and freedoms in the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. From a scientific and theoretical perspective, the consolidation in constitutional norms of such concepts as the recognition of human dignity as the highest value, justice, freedom, the rule of law, social solidarity, and moral responsibility is examined. The organic interconnection between law and spirituality, as well as the constitutional consolidation of spiritual factors in the development of the state and society, is substantiated.

Key words: Constitution, human rights, freedoms, moral foundations, rule-of-law state, human dignity, civil society.

Kirish. Inson huquq va erkinliklarini taʼminlash har qanday davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda Konstitutsiya nafaqat oliy yuridik kuchga ega

hujjat, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy qarashlarini mujassam etuvchi asosiy manba sifatida namoyon bo'ladi. Bilamizki, 2023-yil 30-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha umumxalq referendumini o'tkazildi. Referendum natijalariga ko'ra esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining olti bo'lim, 27 bob va 155 ta moddadan iborat yangi tahriri qabul qilindi. Konstitutsiyadagi moddalar sodi 128 tadan, 155 taga, normalar soni esa 275 tadan 434 taga ko'paydi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining yangi tahriri inson manfaatlarini davlat siyosati ustivor yo'nalishi sifatida belgilab, **“inson-jamiyat-davlat”** tamoyilini amaliy mazmun bilan boyitti. “Inson-jamiyat-davlat” tamoili haqida Sh. Mirziyoyev o'zining 2022-yil nashrdan chiqqan **“Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”** asarida ham fikrlarini aytib o'tadi. Bundan tashqari “bugun yurtimiz nafaqat ijtimoiy, balki adolatli jamiyat sari ildam qadam tashlamoqda. Binobarin, **“Yangi O'zbekiston-ijtimoiy davlat”** tamoyilini Konstitutsiyamizda mustaxkamlashimiz zarur”¹ kabi fikrlari ham aytib o'tadi.

Eng muhimi, Yangi O'zbekistonni bunyod etish asnosida konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirishdan ko'zlanayotgan maqsad-Vatanimiz taraqqiyotini, xalqimiz farovonligini yangi bosqichga ko'tarishdan iboratdir.²

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarning 40 foizdan ortig'i, yangi kiritilgan 27 ta normaning 11 tasi inson huquq va erkinliklarini taminlashga oid ekanligi, kiritilgan o'zgartirishlarning xalqaro standartlarga mos kelishi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning inson huquq va erkinliklarini taminlashdan iborat ekanligi belgisidir.

Yangi Konstitutsiyaning muhim jihatlardan biri – inson qadr qimmatining oliy ijtimoiy qadriyat sifatida e'tirof etilishidir. Bu yondashuv davlat hokimiyati organlarining faoliyatini inson manfaatlariga xizmat qildirishga yo'naltiradi. Jumladan Konstitutsiyaning barcha qism va boblar inson va jamiyat manfaatlarini mustaxkamlagandir. Masalan,

¹ Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot .- Toshkent.: O'zbekiston, 2022 y. – b117

² Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot .- Toshkent.: O'zbekiston, 2022. – b119-120

Konstitutsiyaning X bobi aynan “Inson hamda fuqarolarning huquq va erkinlikari kafolatlari” mavzusidadir. Konstitutsiyaning **54-moddasiga** muvofiq, insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi. Ushbu modda inson huquq va erkinliklarini taminlash kafolatlari qat’iy belgilanganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasiga ko‘ra inson va uning huquq va erkinliklari, qadr-qimmatini eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson huquqlari inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi. Masalan:

- fuqarolik huquqlari sohasi;
- siyosiy huquqlar sohasi;
- iqtisodiy huquqlar sohasi;
- ijtimoiy huquqlar sohasi;
- madaniy huquqlar sohasi;
- jamoviy huquqlar sohasi;

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlari sohasida milliy va umuminsoniy qadryatlarning uyg‘unligi taminlangan. Bir tomondan xalqimizga xos bo‘lgan ma’naviy an’analar, oila mahalla, kattalarga hurmat, ijtimoiy masuliyat kabi tushunchalar, mustahkamlangan. Ushbu an’analariga mos mehnat va turmush sharoiti, ta’lim, tibbiy xizmatdan foydalanish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari, keksalar, ayollar, yosh bolalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va boshqalarga munosib sharoitlarni yaratishga hizmat qiluvchi ijtimoiy davlat asoslar qaror topgan. Jumladan, Konstitutsiyaning **57-moddasiga** muvofiq mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan rhtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir. Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojamand toifalarining turmush siatinioshirishga, jamiyat va davlat hayotida to‘laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoit yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda

ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko'radi. **77-moddasiga muvofiq** davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligdan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi. **50-moddasiga muvofiq**, har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. **48-moddaga muvofiq**, har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

Davlatning bosh vazifalaridan biri esa o'z fuqarolarining huquq va erkinliklarini ta'minlash va qo'riqlashdir. Konstitutsiyaning **19-moddasida** O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq etirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilgandan boshlab beriladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri inson huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgiladi. Unda inson sha'ni va qadr-qimmatini oliy ijtimoiy qadriyat sifatida e'tirof etilib, huquqiy normalar insonparvarlik va adolat g'oyalari bilan uyg'un holda mustahkamlandi. Bu yondashuv Konstitutsiyaning nafaqat huquqiy, balki ma'naviy ahamiyatini ham oshirdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlarini ta'minlash milliy ma'naviy qadriyatlar hamda umuminsoniy huquqiy tamoyillar uyg'unligi asosida yoritilgan. Davlatning inson huquqlarini himoya qilish borasidagi mas'uliyatining kuchaytirilishi shaxs manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, Konstitutsiyaning yangi tahriri O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim ma'naviy-huquqiy poydevor bo'lib, inson huquq va erkinliklarini amaliy jihatdan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Islomov ,A. Konstitutsiyaviy islohotlar va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent:. Huquqiy axborot markazi, 2023.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘quv qollanma. Mualliflar jamoasi.-Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2024.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr.-Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2023.

Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot.-Toshkent.: O‘zbekiston, 2022.

<http://nhrc.uz/oz/news/m11955>

https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Respublikasining_Konstitutsiyasi

[https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_konstitutsiyaviy_referendumi_\(2023\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_konstitutsiyaviy_referendumi_(2023))